



## INGLIZ TILI O'QITUVCHILARNING DARS O'TISH METODIKASI

*Buxoro psixologiya xorijiy tillar Instituti magistri.*

*Iskandarov Oybek Xayrullayevich*

**Annotatsiya:** Pedagogning mavqeyi ilg'or tajribalarni vujudga keltirishda va ularni kasbdoshlari o'rtasida ommalashtirishda, ayniqsa, ahamiyatlidir. Ta'lim beruvchi yangi ilg'or pedagogik tajribani amaliyatga joriy etishda uning qimmatini hamda qay darajada samarali ekanligiga e'tibor berishi kerak.

**Kalit so'zlar:** Pedagog, konferensiyalar, amaliy faoliyat, ta'lim beruvchi, innovatsiya, professor o'qituvchi, metod, individual xususiyatlar.

O'qituvchi amaliy faoliyatining innovatsiyaga yo'nalganligi nazariy pedagogik tadqiqotlar natijasida erishilgan yutuqlarni amaliyatga joriy etish imkoniyatini beradi. Aynan mana shunday tadqiqotlar natijalarlarini ommalashtirish uchun ularni keng jamoatchilikka tanishtirish talab etiladi. Bunday yangiliklarni soha mutaxassislari tomonidan tezkor maslahatlar berish lozim.

Til asosiy aloqa vositasidir. Usiz inson jamiyatining borligi va rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda bizning dunyoyimizda ijtimoiy munosabatlarda katta o'zgarishlar bo'layotgan bir pallada aloqa axborot vositalari (axborot texnologiyalari) o'quvchilarning kommunikativ malakasini oshirishni talab qiladi, ular muloqatning boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro muloqat qilish jarayonida turli vaziyatlarda fikrlarni almashishi, til va so'zlashuv normalarini to'g'ri ishlatishini taqozo etadi.

Tadqiqot jarayonida ingliz tilini o'rgatish va o'rganishning mashhur usullaridan, internet manbalaridan foydalanish zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab



maktab, kollej, litsey, keyinchalik institutlarda, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi asosiy ma'lumot to'plamlari bilan tanishgan holda o'rganadilar.

Misol tariqasida bir nechta samarali metodik usullarni ko'rsatish mumkin:

Pimsler usuli; Doktor Pol Pimsler nafaqat ma'lumotni idrok etish, balki uni qayta ishlab chiqarish uchun ham mo'ljallangan o'ttiz daqiqalik darslarning maxsus tizimini ishlab chiqdi. Har bir dars ikki kishi tomonidan aytiladi: bizning hamyurtimiz va ingliz tilida so'zlashuvchi. Buning yordamida hamda maxsus yodlash texnologiyasi tufayli har bir o'quvchi har bir dars uchun ingliz tilidagi yuzlab so'z va iboralarni o'rganadi. Darsning mohiyati ma'ruzachilar tomonidan aytiladigan topshiriqlarni ketma-ket bajarishdir.

Aleksandr Niklaevichning o'z maktablari tarmog'i bor, unda siz uch turdagi kurslarni o'zlashtirishingiz mumkin: asosiy, qisqa va suhbat. Mustaqil ta'lim olish uchun Tilshunoslikning til o'rganishga innovatsion yondashuvini o'z ichiga olgan "A Little leap into English" kitobi taklif etiladi. Uning tizimidan foydalanib, siz ingliz tilidagi fe'llarning ishlatilishini osongina tushunishingiz mumkin va maqolada foydalanish qoidalarini yodlashingiz, shu jumlada, so'z va gaplarni qurishning asosiy tamoyillarini osongina o'zlashtirishingiz mumkin. Shunga qaramay, Dragunkin usuli ko'plab salbiy sharhlarga ega, ular talaffuzni va nazariy bilimlarning yetarli emasligini tanqid qiladi.

Petrov usuli: Dmitriy Petrovning aytishicha, ingliz tilini 16 soatda o'rganishingiz mumkin. To'g'ri, muallif yana bir bor aniqlaydiki, biz Buyuk Britaniyada tug'ilgan fuqaro darajasida tilni o'zlashtirish haqida emas, balki asosiy bilimlar haqida gapiramiz. Uning darslari ingliz tilida so'zlashadigan muhitga tushib qolish



sharoitida omon qolish, sizning ehtiyojlaringiznin tushuntirish va javobni tushunish uchun yetarli hisoblanadi.

Pedagogning mavqeyi ilg'or tajribalarni vujudga keltirishda va ularni kasbdoshlari o'rtasida ommalashtirishda, ayniqsa, ahamiyatlidir. Ta'lim beruvchi yangi ilg'or pedagogik tajribani amaliyotga joriy etishda uning qimmati hamda qay darajada samarali ekanligiga e'tibor berishi kerak

Mualliflar o'zlarining innovatsiyalari va ularni amaliyotga joriy etish yo'llarini bayon qilishda o'zlari va kasbdoshlarining individual xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan to'siqlarga ro'baro keladilar. Nafaqat pedagogik innovatsiyalarni targ'ib qilish va ommalashtirish, balki ular asosida pedagoglar faoliyatiga tuzatishlar kiritish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimdonligi va mahoratini boyitish vazifasi ham ijobiy guruh zimmasiga yuklanadi. Innovatsiyalarni tizimli tanlash, monitoring o'tkazish, innovatsion g'oyalar, texnologiyalarga baho berish, oliy o'quv yurtlari ish tajribalarini boyitish vazifalari ham ijodiy guruh a'zolari zimmasidadir.

Bo'lg'usi pedagoglarning kreativ funksiyalarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi innovatsion usullar yangiligi darajasiga ko'ra bir qancha shakllarda namoyon bo'ladi: absolyut daraja; lokal-absolyut daraja; shartli daraja; sub'ektiv daraja. Innovatsion pedagogik yangiliklarni ommaviy tarzda amaliyotda qo'llash ularni baholashning mezonni sifatida talqin etiladi. Bu asosan o'quv jarayonining texnik ta'minoti va o'qituvchi faoliyatining o'ziga xosligi bilan bog'liqdir.

Xulasa qilib aytganda, yuksak darajadagi umumiy va kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faolikka, mustaqil fikrlashga, vazifalarini mushkulliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan yetuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda



pedagog ustozlarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishning omili ekanligini bilamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. “ Dars o‘tish metodikasi” Toshkent 2021-yil
2. “ O‘qituvchi – texnolog”